



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 182 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramozonova Bahroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
B. X. Sharopov	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
S. A. Qarshiboyev	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
Suyunov Rustam Sadriddinovich	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
Umarov Azizbek Vaxobovich	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
S. S. Qulmurodova	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
Burkhonova Zараfruz Kobilovna	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish	102
Bozorboyev Javlon	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
Jamilova Dilsuza To'lqin qizi	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi	114
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi	
Fotometrik kattaliklar	117
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi	
Qutublangan yorug'lik manbalari	121
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina	
Tabiatdagi optik hodisalar	125
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish	129
Erkinova Nozima Utkir qizi	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili	133
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish	136
Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
Shokirova Mushtariy	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli	144
Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
Veronica Khatamova	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida	157
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot	162
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
Saidova Parvina Mirzo kizi	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari	178
Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi	

BO'LAJAK CHIZMACHILIK O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Jamilova Dilsuza To'lqin qizi

Kattaqo'rg'on tumanidagi 39-umumta'lim maktabining
tasviri san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda mehnat bozorida yuqori malakali pedagog kadrlarga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi sharoitida chizmachilik fanini o'qitish sifatini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, grafik savodxonlik, kreativ fikrlash hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar – innovatsion pedagogik texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, raqamli grafik dasturlar bilan ishlash malakasi, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash hamda integrativ yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, global ta'lim tendensiyalari va STEAM yo'nalishining rivojlanishi chizmachilik o'qituvchisidan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni talab etishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, chizmachilik ta'limi, chizmachilik o'qituvchisi, pedagogik texnologiyalar, grafik savodxonlik, raqamli ta'lim, STEAM, kreativlik, amaliy ko'nikmalar.

Abstract: In the context of the modernization of the education system, the widespread implementation of digital technologies, and the increasing demand of the labor market for highly qualified teaching staff, improving the quality of teaching drawing has become one of the urgent issues. In this regard, the formation of theoretical knowledge, practical skills, graphic literacy, creative thinking, and competencies in the use of modern information and communication technologies among future teachers is of particular importance. The main factors influencing the development of professional competencies are highlighted, including innovative pedagogical technologies, effective organization of practical training, skills in using digital graphic software, support for independent learning, and integrative approaches. Furthermore, it is substantiated that current global educational trends and the development of STEAM-education require a higher level of professional training for drawing teachers.

Key words: professional competence, drawing education, drawing teacher, pedagogical technologies, graphic literacy, digital education, STEAM, creativity, practical skills.

Аннотация: В условиях модернизации системы образования, широкого внедрения цифровых технологий и возрастающих требований рынка труда к высококвалифицированным педагогическим кадрам повышение качества преподавания черчения становится одной из актуальных задач. В этой связи формирование у будущих учителей теоретических знаний, практических навыков, графической грамотности, креативного мышления, а также компетенций в области использования современных информационно-коммуникационных технологий приобретает особую значимость. Рассматриваются основные факторы, влияющие на развитие профессиональных компетенций: инновационные педагогические технологии, эффективная организация практических занятий, навыки работы с цифровыми графическими программами, поддержка самостоятельного обучения и интегративные подходы. Кроме того, обосновано, что современные глобальные образовательные тенденции и развитие направления STEAM-образования предъявляют более высокие требования к уровню профессиональной подготовки учителя черчения.

Ключевые слова: профессиональная компетенция, обучение черчению, учитель черчения, педагогические технологии, графическая грамотность, цифровое образование, STEAM, креативность, практические навыки.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, chizmachilik fani texnik tafakkurni rivojlantirish, fazoviy tasavvurni shakllantirish hamda muhandislik asoslarini o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarini yuqori darajada tayyorlash bugungi kun ta'lim siyosatining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.



O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazkur yo'nalishdagi islohotlarning asosini tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son¹ Qonunida ta'limning asosiy maqsadi sifatida raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Mazkur qonunda pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash, zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan boyitish zarurligi alohida ta'kidlangan^[1].

Shuningdek, ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son² qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son³ Farmonida oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, talabalar mustaqil ta'limini kuchaytirish hamda ularning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan^{[2], [3]}.

Bundan tashqari, chizmachilik yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun belgilangan "malaka talablari"da ham pedagog kadrlarni tayyorlash sifatiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, unda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi, nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi ham muhim mezon sifatida belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagog olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi keng yoritilgan.

Jumladan, N. Muslimov o'z tadqiqotlarida pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar va amaliy faoliyatning o'rni muhimligini ta'kidlaydi^[4].

Shuningdek, Sh. Sharipov pedagogik tayyorgarlik jarayonida integrativ yondashuvni qo'llash orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish mumkinligini asoslab bergan^[5].

Xorijiy tadqiqotchilardan L. Shulman tomonidan ilgari surilgan "pedagogik mazmuniy bilim" (Pedagogical Content Knowledge) konsepsiyasi ham o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi^[11].

Hozirgi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari ta'lim mazmuni hamda metodlariga yangi talablarni qo'yimoqda. An'anaviy o'qitish yondashuvlari o'rni interfaol, innovatsion va kompetensiyaviy yondashuvlar egallamoqda. Bu esa, o'z navbatida, bo'lajak pedagoglardan nafaqat bilim berishni, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishni ham talab etadi.

Chizmachilik o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga metodik tayyorgarlik, grafik bilim va ko'nikmalar, zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish malakasi, pedagogik muloqot madaniyati hamda innovatsion faoliyatga tayyorlik kiradi. Ushbu kompetensiyalarni samarali rivojlantirish esa muayyan pedagogik shart-sharoitlar va omillarga bog'liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida pedagogik kuzatish, ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Dastlab, mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy-adabiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarga doir tadqiqotlar o'rganildi. Shuningdek, chizmachilik ta'limida qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli grafik dasturlarning o'quv jarayonidagi samaradorligi tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida pedagogik jarayonlarni kuzatish orqali talabalarning amaliy ko'nikmalari, grafik savodxonligi va mustaqil ishlash faoliyati bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy va tavsifiy tahlil asosida qayta ishlanib, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy omillar aniqlashtirildi. Natijalar asosida chizmachilik o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishga doir ilmiy xulosalar shakllantirildi.

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori: <https://lex.uz/docs/-3171590>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4545884>

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va metodika fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kasbiy kompetensiya tushunchasi pedagogning nafaqat bilim va ko'nikmalar majmui, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo'llay olish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, chizmachilik o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi ko'p komponentli tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Avvalo, bo'lajak o'qituvchilarda nazariy va metodik tayyorgarlik kompetensiyasini shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu kompetensiya chizmachilik fanining asosiy qonuniyatlari, grafik tasvirlash qoidalari, standartlar hamda o'qitish metodikasini chuqur o'zlashtirishni nazarda tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogning metodik tayyorgarligi uning dars jarayonini samarali tashkil etishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi ^[4]. Shu bilan birga, L. Shulman tomonidan ilgari surilgan pedagogik mazmuniy bilim konsepsiyasi o'qituvchining fan mazmunini o'quvchiga tushunarli shaklda yetkazish qobiliyatini asoslab beradi ^[11].

Ikkinchi muhim omil sifatida amaliy ko'nikmalar va grafik savodxonlikni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chizmachilik fanining o'ziga xosligi shundaki, u nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy faoliyatni ham talab etadi. Talabalarning chizma bajarish, proyeksiyalarni qurish, detallarni tasvirlash kabi amaliy ko'nikmalari muntazam mashg'ulotlar orqali rivojlantiriladi. Bu borada amaliy darslarning samarali tashkil etilishi, laboratoriya mashg'ulotlari va loyiha ishlari muhim o'rin tutadi ^[5].

Zamonaviy ta'lim sharoitida raqamli texnologiyalar va grafik dasturlardan foydalanish kompetensiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda muhandislik va dizayn sohalarida keng qo'llanilayotgan AutoCAD, SolidWorks, KOMPAS-3D kabi dasturlarni o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchilarning raqobatbardoshligini oshiradi. Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish orqali chizmachilik fanini o'qitishning samaradorligi sezilarli darajada ortadi, o'quvchilarda vizual tafakkur va ijodiy yondashuv rivojlanadi ^[9].

Keyingi muhim omil – innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash hisoblanadi. Interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish (project-based learning) va STEAM yondashuvlari orqali talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy salohiyati hamda amaliy faoliyatga tayyorligi rivojlantiriladi. Ayniqsa, STEAM yondashuvi chizmachilik fanini matematika, texnologiya va muhandislik fanlari bilan integratsiyalash imkonini beradi, bu esa o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi ^[10].

Shuningdek, mustaqil ta'limni tashkil etish faoliyatini rivojlantirish ham kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Talabalarning mustaqil ishlari, individual topshiriqlar, portfoliolar va tadqiqot faoliyati orqali ularning o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati shakllanadi. Bu esa kelajakda pedagog sifatida uzluksiz kasbiy rivojlanishga zamin yaratadi ^[8].

Yuqoridagi omillarni kompleks tarzda amalga oshirish natijasida bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarida quyidagi asosiy kompetensiyalar shakllanadi: metodik kompetensiya, axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, kreativ va innovatsion fikrlash kompetensiyasi. Mazkur kompetensiyalar esa ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kompleks va tizimli yondashuvni talab etuvchi masalalardan biri sifatida qaraladi. Mazkur jarayon ko'plab o'zaro bog'liq omillar ta'sirida shakllanib, ular orasida innovatsion pedagogik texnologiyalar, amaliy tayyorgarlikni tashkil etish, raqamli vositalardan foydalanish, mustaqil ta'limni rivojlantirish hamda integrativ yondashuvlar alohida o'rin tutadi. Bunda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodologik asosini tashkil etadi.

Zamonaviy ta'lim paradigmasi bilimlarni tayyor holda uzatishdan ko'ra, ularni mustaqil egallash va qo'llashga yo'naltirilgan yondashuvni talab etadi. Shu jihatdan interfaol metodlar, muammoli o'qitish va loyihaviy faoliyat elementlari talabalarning bilish faolligini oshirish, tahliliy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu borada pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari chuqur o'rganilgan bo'lib, ular ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi ^[6].

Shu bilan birga, chizmachilik fanining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, amaliy tayyorgarlik kasbiy kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Grafik tasvirlash, proyeksiyalash va texnik hujjatlarni ishlab chiqish bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar talabalarning fazoviy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy mashg'ulotlarning mazmunan boyitilishi va ularning tizimli tashkil etilishi pedagogik tayyorgarlik sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi ^[7].

Raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi natijasida ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarida raqamli grafik vositalar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.



Xususan, AutoCAD, SolidWorks va KOMPAS-3D kabi dasturlarni o'zlashtirish nafaqat grafik savodxonlikni oshiradi, balki ta'lim jarayonining zamonaviy talablarga mosligini ta'minlaydi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalash ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi ^[9].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish ko'p qirrali, tizimli hamda uzluksiz jarayon bo'lib, u zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgandagina samarali natija beradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, raqamli grafik dasturlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash hamda fanlararo integratsiyani ta'minlash bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Xususan, AutoCAD, SolidWorks kabi zamonaviy dasturlarni o'quv jarayoniga integratsiyalash hamda STEAM ta'limi asosida o'qitishni yo'lga qo'yish bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, mazkur jarayonni takomillashtirish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni amaliyotga keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: Adolat, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–2909-son qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". – T., 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5847-son farmoni "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi". – T., 2019.
4. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik asoslari. – T.: Fan, 2015.
5. Sharipov Sh.S. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: O'qituvchi, 2018.
6. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2017.
7. Abduqodirov A.A. Kasbiy pedagogika asoslari. – T.: O'qituvchi, 2016.
8. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: Sharq, 2018.
9. Nishonov N., Karimov J. Muhandislik grafikasi va kompyuter texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiya, 2020.
10. Yakubov X.T. Integrativ ta'lim texnologiyalari. – T.: Innovatsiya, 2021.
11. Shulman L. Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform. – Harvard Educational Review, 1987.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.